

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI



“PASDIOQATMAN”

Rektor

O.Sh.Bazarov

2022 yil

«TRAKTOR VA AVTOMOBILLAR YARATILISH TARIXI VA ISHLAB
CHIQARUVCHI KORXONALAR»

fanidan

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Qishloq va suv xo'jaligi
Ta'lim sohasi:	430000 – Qishloq xo'jalik texnikasi
Ta'lim yo'nalishi:	60712400- Avtomobilsozlik va traktorsozlik

Qarshi-2022 y.

1.

Fanning nomi: <i>Traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar</i>	Fan (modul) turi <i>Tanlov fan</i>	Fan (modul) kodi <i>TAYT 1102</i>	Ta'lim tili: <i>o'zbek</i>
O'quv yili: <i>2022/2023</i>	Kurs va semestr <i>1 kurs, 1 semestr</i>	ECTS krediti: <i>2</i>	Haftalik dars soati: <i>2</i>
Umumiy o'quv soatlari: <i>60</i>	Ma'ruza: <i>14</i>	Amaliy mashg'ulot: <i>16</i>	Mustaqil ish: <i>30</i>

2.

II. Fanning mazmuni

Ushbu dastur talabalarga traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirishda agroinjenerning o'rni va ular tomonidan texnik yechimlarni qabul qilishni va ularni ishlab chiqarishga joriy etish tartiblarini hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirilgan.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti - 60712400-Avtomobilsozlik va traktorsozlik yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash mazmuni va saviyasining majburiy minimumida bo'lgan talablariga muvofiq tuzilgan.

2.1. Fanni o'qitishdan maqsad – traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirishda muhandisning o'rni va talabalarda o'zlari tanlagan yo'nalishiga qiziqish uyg'otish, talabalar bilimi, o'quvi va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar, fanni o'tish uslublari hamda respublika agrar sohasini barqaror rivojlanishida qishloq xo'jaligi texnikalarining ahamiyati to'g'risida batafsil tushuncha va bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – respublika iqtisodiyotida agrar sohaning o'rni va uni barqaror rivojlantirishda "Avtomobilsozlik va traktorsozlik" ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining rolini talabalar ongiga chuqur singdirish;

- traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi texnikalari, ulardan amaliyotda foydalanish, respublika qishloq xo'jaligining taraqqiyot yo'li, qishloq xo'jaligi texnikalarining buguni holati va kelajagi va istiqbollari xaqida talabalarga ma'lumotlar yetkazish;
- agrar soha tarmoqlarida qishloq xo'jaligi texnikalari va ularni o'ziga xos tomonlarini talabalar tafakkuriga singdirish.

2.2. Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar. O'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: - traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar xaqida tasavvurga ega bo'lishi; - traktor va avtomobillar yaratilish tarixini; - traktor va avtomobillar ishlab chiqaruvchi korxonalarni; - Respublikamizning iqlim- tuproq sharoitiga mos qishloq xo'jalik texnologiyalari va texnikalarining yaratilishini; - qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarishning istiqbollarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash sohasidagi asosiy kashfiyotlarni va ular asosida yaratilgan qishloq xo'jaligi texnikalarini bilish va ulardan foydalana olishi; - respublika avtomobilsozlik va traktorsozlik tizimi va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish malakalariga ega bo'lishi kerak. 2.3. Asosiy nazariy qism. Fanning nazariy mashg'ulotlari (ma'ruzalar) mazmuni 1-mavzu. Traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar fanini o'rganishning maqsadi va vazifalari. Traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar fanining maqsadi va vazifalari. Fanning agrar soha uchun kadrlar tayyorlashdagi o'rni. Avtomobilsozlik va traktorsozlik bakalavr yo'nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyati turlari va ob'ektlari. 2-mavzu. Ichki yonuv dvigatellarining yaratilishi. Ichki yonuv dvigatellarining yaratilishi. Dizel dvigatellarinig paydo bo'lishi. Ichki yonuv dvigatellarining turlari. 3-mavzu. Respublikamizning tuproq-iqlim sharoitiga mos qishloq xo'jalik texnologiyalari va texnikalarining yaratilishi. Respublikamizning tuproq-iqlim sharoitiga mos qishloq xo'jalik texnologiyalari yaratilishi. Respublikamizning iqlim-tuproq sharoitiga mos qishloq xo'jalik texnikalarining yaratilishi. 4-mavzu. Qishloq xo'jalik texnikasini yaratilish bosqichlari. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qo'l mehnatining bosqichma-bosqich mexanizatsiyalashtirilishi. Qishloq xo'jaligi texnikasini yaratishning zarurati. Qishloq xo'jalik texnikasini yaratilishi. Texnik yechimni g'oyadan ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqich. 5-mavzu. Yangi yaratilgan texnikani joriy etish bosqichlari. Yaratilgan qishloq xo'jaligi texnikasini sinash bosqichlari. Yangi qishloq xo'jaligi texnikasini davlat sinovidan o'tkazish bosqichlari va ishlab chiqarishga joriy etilishi tartiblari. Ilmiy tadqiqotlarning tasnifi va asosiy bosqichlari.
--

6-mavzu. O'zbekiston va xorij qo'shma korxonalari hamkorligida ishlab chiqarilgan texnikalar.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqaradigan dastlabki tashkilotlar. O'zbekiston va xorij qo'shma korxonalari hamkorligida ishlab chiqarilgan texnikalar. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan texnikalar.

7-mavzu. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarishning istiqbollari.

Respublikamiz tuproq-iqlim sharoiti va dehqonchilikning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish masalalari va ularning yechimlari. Paxtachilik traktorlarining o'ziga xos tomonlari. Qishloq xo'jaligi texnikalarining istiqbolli yo'nalishlari.

Amaliy mashg'ulotlarining taxminiy ro'yxati

1. Jahon qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirilishining dastlabki davridagi qurollar va mashinalarni o'rganish
2. Traktorlarning rivojlanish tarixi, ularning vazifasi, tuzilishi va ish prinsipi
3. Tabiatdagi mavjud kuchlar va ularni qishloq xo'jaligi texnikalarida qo'llanilishi
4. Oddiy uy ro'zg'or va dehqonchilik qurollarining yaratilishida fizika va mexanika qonuniyatlarining qo'llanilishi
5. O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarilgan texnika va texnologiyalarni o'rganish
6. Yuqori quvvatli va unumli qishloq xo'jalik texnikalari bilan tanishish
7. Mexanik va gidravlik yuritmalarning qishloq xo'jalik texnikalarida qo'llanilishi
8. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnikalardan samarali foydalanish

2.4. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarini chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

2.5. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – talabalar o'qituvchi rahbarligida o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar, internet ma'lumotlari, o'quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Mexanikada kuch, quvvat va ish birliklari;
2. Qishloq xo'jaligi mashinasining ish unumi va uning tashkil etuvchilari;
3. Traktor va avtomobillarning quvvatini baholash sifatida ot kuchi qabul qilinganligi;
4. Dizel dvigatelinining yaratilishi;
5. Ichki yonuv dvigatelinining yaratilishi;
6. Ichki yonuv dvigatellarining turlari
7. Qishloq xo'jaligi mashinalarida qo'llaniladigan yuritmalar turlari.
8. Traktorlarda fizika qonuniyatlarini qo'llanilishi.
9. Traktorlarda elektr toki hosil qilish manbasi va iste'molchilari.
10. Traktor va avtomobillardan foydalanishda atrof muhit muhofazasi masalalari.
11. Fizik birliklar va ularni qishloq xo'jaligi muxandisligida qo'llanilishi.
12. "Davlat texnika nazorati" inspeksiyasining faoliyati..
13. Neft va undan olinadigan mahsulotlar turlari.
14. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarishning istiqbollari.

3. III. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar).

"Traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr quyidagilar bo'yicha nazariy va amaliy **bilimga ega bo'lishi kerak:**

- traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**
- qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash tizimini;
- respublika ta'lim tizimi, turlari, bosqichlari va shakllarini;
- Respublikamizning iqlim- tuproq sharoitiga mos qishloq xo'jalik texnologiyalari va texnikalarining yaratilishini;
- qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarishning istiqbollari **bilishi va ulardan foydalanish;**
- qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash sohasidagi asosiy kashfiyotlarni va

	ular asosida yaratilgan qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalana olish; - respublika avtomobilsozlik va traktorsozlik tizimi va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; - o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	IV. Ta'lim texnologiyalari va uslublari Fanni o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir vaqtda yangi texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ladi. Bu ishda talabani mustakil ishini to'g'ri tashkillashtirishga intilish lozim; o'qitishning elektron vositalari, internet orkali olinadigan ma'lumotlar, elektron darsliklar; interaktiv usuldan foydalanish; ekspress so'rovlar; texnik vositalarni qo'llash va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalar va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi. O'qitish uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, animatsiyalar, amaliy mashg'ulot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan: munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ruxsatini tuzish, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish, bahs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog'lama), baliq skeleti, FSMU, bumerang, "T-sxema", blits-so'rov, "Nima uchun?" texnologiyalari, ma'ruza mashg'uloti- BBXB (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), konseptual va insert jadvallardan keng foydalaniladi. Fan bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo'stlik mamlakatlarida yangi chop etilib, Internet tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda mashinalarning ishchi qismlari, ularning tuzilishi va ishlash prinsipini hamda ularning animatsiya ko'rinishida va fan bo'yicha savol javoblardan, laboratoriya mashg'ulotlarida mashina va jihozlardan foydalaniladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va

	intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi. Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, loyihalash usullari, amaliy ishlash. O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh. O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari. Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi. Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati. Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.
5.	V. Talabalar bilimini baholash me'zonlari va kreditlarni olish uchun talablar Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul (Hemis)

	platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi. Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi. Fan bo'yicha talabalarga test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiriladi. Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.
6.	VI. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti Mazkur fanni o'qitish jarayonida: - ta'limning zamonaviy metodlari. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan; - "Traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar" fanining nazariy asoslarini o'rganishda bo'limlarga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan hamda o'qitishning an'anaviy uslublaridan; - "Traktor va avtomobillar yaratilish tarixi va ishlab chiqaruvchi korxonalar" fani bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarida aqliy xujum, yakka, kichik guruhlar musobaqalari guruhli fikrlash va h.k.lar kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'zda tutiladi. Mashg'ulotlarda o'quv televideniyesi, diaproyektor, kompyuter texnikalari, slaydlar, o'quv kino va video filmlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Tavsiya etilayotgan adabiyotlar 6.1. Asosiy adabiyotlar 1. Harry L. Field and John B. Solie Introduction to Agricultural Engineering Technology. Oklahoma State University Stillwater, OK, USA.65-75. 2. Шоумарова М., Абдиллаев Т.А. Қишлоқ хўжалик машиналари. Тошкент:-Фан, 2002. -367 Б. (дарслик) 3.Гуревич А.М., Сорокин Е.М. Traktor va avtomobillar. – Т.: -1980. -465Б. 4. Маматов Ф.М. Қишлоқ хўжалик машиналари. Тошкент: Фан, -2014. -390 Б. (дарслик) 5.Камилов А.И, Шарипов Қ.А, Умиров Н.Т, Юсупов Ғ.Ю. Traktor va avtomobillar.Тошкент: 2011, -334Б. (дарслик) 6.2. Qo'shimcha adabiyotlar 1.Solihov I.S."Traktor va avtomobillar". – Toshkent "Chulpon",2012.-512b. 2.Матчанов Р.Д. Усмонов А.С. Агросаноатмашиналари. Тошкент: Янги

	асравлоди, 2002-295 Б. (рисола) 3."Traktor konstruksiyalari" 1,2 – qism // O.X.Mahkamov umumiy tahriri ostida,Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ilmiy nashriyoti",2014.-542b. 6.3. Elektron resurslar: 1. www.bilim.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 2. www.ziyo.edu.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 3.www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 4.http://www.amazon.com/ 5. http://bookree.org/ 6. http://auto.ru/ 7. http://auto.de/ 8. http://traktor.ru/
7.	Fanning o'quv dasturi Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil "<u>26</u>" "<u>08</u>" dagi "<u>1</u>"-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. O'quv dastur Institut Ilmiy Kengashi (2022 yil "<u>29</u>" "<u>08</u>" № <u>1</u> -sonli qaror) bilan tasdiqlangan.
	Fan (modul) uchun mas'ullar: Chuyanov D.Sh. - "<i>Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis</i>" kafedrasi professori v.b., t.f.d.
	Taqrizchilar: Qodirov U.I. – "<i>TIQXMMI</i>" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti Toirov I. – QarMII "<i>QXM va S</i>" kafedrasi dotsenti